

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti

PEDAGOGIKA FAKULTETI

«Pedagogika» kafedrası

5140800-Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 3- kurs talabasi

Amonov Xurshidning
«Pedagogik konfliktologiya» fanidan

KURS ISHI

MAVZU: Maktab o'quvchilari yuz beradigan ziddiyatli vaziyatlar

Ilmiy rahbar: Sh.O'roqov

Samarqand - 2014

KIRISH

ASOSIY QISM

1. Ziddiyatlar inson hayotining ajralmas tarkibi sifatida
2. Maktab o'quvchilarining psixologik xususiyatlari
3. Maktab o'quvchilarida yuz beruvchi konfliktlar sabablari, konfliktogenlar va ularning turlari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kirish

Respublikamiz mustaqil davlat sifatida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda kelajak sari ildam qadamlar bilan rivojlanmoqda. Buning dalili sifatida o'zbekistonning jahon hamjamiyati o'rtasidagi munosib o'rni, mamlakatdagi turli sohalar bo'yicha o'zgarishlar, xalqning o'zligini anglay boshlagani, yoshlar faolligining oshganligida ko'rish mumkin. Lekin, hamma masalalar hali hal qilindi degan gap emas.

Mustaqillik o'zbek xalqining azaliy orzularini ruyobga chiqardi, unga tenglar ichida teng ekanligini namoyon etish imkoniyatini yaratdi. Xo'rlangan, tahqirlangan milliy-axloqiylik, milliy g'urur, ozodlik, o'zligini anglash hissi o'z qaddi-qomatini tiklash sharafiga muyassar bo'ldi.

Ammo mustabid tuzum davrida yo'l qo'yilgan iqtisodiy va ma'naviy sohalaridagi kamchiliklarni bartaraf etish, mustaqil davlatni har tomonlama jihatdan rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarish, xalqning haqiqiy ma'naviyatini qayta tiklash hamda zamon talablari asosida uni yo'lga qo'yish katta kuch va aqlni talab qiladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarida «... Dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvallambor, uni quolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi», - deb bildirgan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi.¹

Xalqning keng qatlamlarini mustaqillik mafkurasi asosida shakllantirish, sobiq sho'ro tuzumining kommunistik mafkurasini ular ongidan siqib chiqarish yo'nalishida davlat darajasida talay farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, «ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori (1998 yil 24 iyul)da ta'kidlanganidek, «milliy istiqlol

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 11-бет.

mafkurasi mavjud intellektual imkoniyatlarni ishga solishga, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga, oliyjanoblik tuyg'ularini chuqurlashtirishga, shonli o'tmishga hurmat va porloq kelajakka ishonch hislarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda».

Ushbu vazifalarni to'liq amalga oshirish uchun o'zbek xalqi qadriyati hisoblangan milliy-axloqiy tarbiyani zamon ruhiyati bilan boyitgan holda yosh avlod ongiga singdirmoq lozim. Buning uchun esa qadimiy va o'ta samarali hisoblangan o'zbek milliy tarbiyasining mohiyati, mazmuni, shakl va vositalari, uslubiyati, tarixiy ildizlari haqida ma'lum bilimga ega bo'lish lozim.

Hozirgi zamon fani insoniyatning tarixiy o'tmishiga nazar tashlar ekan, konfliktni hamisha ijtimoiy taraqqiyotning doimiy yo'ldoshi ekanligiga shubha qilmaydi, chunki odamlar bor joyda konfliktlar mavjud bo'lgan va bo'laveradi. Ijtimoiy hayotda konfliktlarning tutgan o'rni va keng tarqalganligi uzoq o'tmishda ham e'tiborni o'ziga tortgan.

O'tgan asrlarda ijod qilgan faylasuflar, tarixchilar, yozuvchilarning asarlarida, afsonalarida va g'oyalarida vujudga kelishi ehtimol bo'lgan konfliktlarning yuzaga kelish sabablari va ularni tugatish yo'llari haqida muayyan fikrlar bildirilgan. O'tmishda konfliktlarni hal etishning asosiy usuli sifatida urug'-qabila oqsoqollari, dohiylarining yakka hokimligi tushunilgan. Biroq ilk davlatchilik tuzilmalarining vujudga kelishi har doim ham jamiyatda uyg'unlikka olib kelmagan, ba'zida ijtimoiy notenglikni keskinlashtirgan, konfliktlarni yaqqol namoyon etgan va kuchaytirgan. Shu bois asrlar davomida insonlar urushlar bo'lmaydigan, nizolar va adovat barham topadigan mukammal kelajakka ishonch hissi bilan yashaganlar.

Bugungi kunda pedagogika va psixologiya sohasida pedagogik jarayondagi nizolar, konfliktlarning kelib chiqish sabablari, ularning tabiati yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek maktab o'quvchilari, o'smirlik va o'spirinlik davrining psixologik, fiziologik jihatlar ham yetarlicha tahlil etilgan. Lekin bu yosh davridagi o'quvchilarda sodir bo'ladigan ziddiyatlar hanuzgacha pedagogika va psixologiya fanining dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu dolzarb vazifalarning tadqiqiga bag'ishlangan mazkur kurs ishida maktab o'quvchilarida sodir bo'ladigan nizoli vaziyatlarning kelib chiqish sabablari va ularning tabiatini o'rganish **tadqiqot maqsadi** qilib belgilangan.

Tadqiqot obyekti: Maktab o'quvchilarida sodir bo'ladigan nizoli vaziyatlar jarayoni

Tadqiqot predmeti: Maktab o'quvchilarining psixologik xususiyatlari va ularda yuz beruvchi nizoli vaziyatlarning sabablari

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

1. Mavzuga oid pedagogik-psixologik adabiyotlarni tahlili o'rganish;
2. Ziddiyatlar inson hayotining ajralmas tarkibi ekanligini yoritib berish;
2. Maktab o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini tadqiq etish;
3. Maktab o'quvchilarida yuz beruvchi konfliktlar sabablari, konfliktogenlar va ularning turlarini o'rganish va xulosalar shaklida umumlashtirish

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Prezident I.A.Karimovning barkamol avlod tarbiyasi bo'yicha g'oyalari, ma'ruzalari, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish bo'yicha qarashlari, shuningdek Respublikamiz pedagog-psixolog olimlarining o'qituvchi muomala madaniyati va muloqoti muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlari tadqiqotimiz uchun asos qilib olindi.

ASOSIY QISM

1. Ziddiyatlar inson hayotining ajralmas tarkibi sifatida

Inson ilk bolalik davridanoq turli nizolar va ziddiyatlar bilan o'zi xohlamagan tarzda to'qnash keladi. Agar o'zimizning bolaligimizni esga olsak, oddiy narsalar ustida juda qattiq qayg'uranimiz, o'z xis-tuyg'ularimizga berilib ketib, manfaatlarmiz himoyasi uchun kurashga kirganimizni anglaymiz. Masalan, urishib qolgan bolani o'zimizning ko'chadan o'tishga qo'ymaganimiz, bizga velosipedini bermagan bolani masxara qilishga uringanimiz, keyinroq esa sizning yangi kiygan chiroyli ko'ylagingiz boshqa qizlarning xavasini keltirgani, ular sizni qutlash o'rniga "namuncha o'zingga zeb beribsan?!" deb piching qilgani, akangiz dars qilayotganida ataylab kassetani baland ovozda qo'yib qo'yganingiz, yoki o'zingiz yaxshi ko'rgan o'yinchoqlaringizni mehmon boladan yashirganingiz mana shunday oddiy konflikt vaziyatlardir. Bularning barchasi kundalik turmushda uchrab turadigan odatdagi nizo va kelishmovchiliklar hisoblanadi. Aytmoqchimizki, ilk bolalikdanoq, biz o'z maqsadlarimizga yetishish uchun boshqalar manfaatlari bilan to'qnashamiz.

Ammo ulg'ayganimiz sari ikki xil hodisa yuz beradi. *Birinchidan*, bolaligimizda bizga katta ta'sir o'tkazgan kelishmovchiliklar ulg'ayganimiz sari bizga e'tiborsiz, kichik, jiddiy bo'lmagan hodisalarga, ba'zan esa kulgili holatlarga aylanadi. Ko'nglimizda, nima uchun shunchalik kuyingan ekanman, deb o'ylaymiz. Shu oddiy bir narsa menga shunchalik ta'sir qilgan ekanda, deb xulosa qilamiz. Tabiiy ravishda, katta bo'lganimizda yoshligimizda urishgan bolani ko'chamizdan o'tkazmaslik, yoki mehmondan biror narsani yashirish hayolimizga ham kelmaydi. Bolalik davrimizda hammamiz ham juda jo'n narsalar uchun kurashganmiz. Ammo hozir hech qaysi birimiz mehmon boladan o'z o'yinchoqlarimizni, o'yinchoqlar bizga qanchalik qadrli bo'lmasin, yashirib qo'ymaymiz. Ya'ni, biz ulg'aygan sari konfliktlarga aqli rasolik va sipolik, sog'lom fikrlilik asosida yondoshamiz. Shubha yo'qki, ulg'aygan insonlar, ya'ni kattalar konfliktlarga kichiklarga nisbatan boshqacharoq yondoshishadi.

Ikkinchi tomondan esa, ulg'ayganimiz sari, bizning hayotimizdagi kelishmovchilik, nizo va ziddiyatlar ham o'sib, ulg'ayib, kattaroq mazmun va mohiyat kasb eta boshlaydi. Masalan, siz bir qizni yoqtirib qoldingiz. Ammo u sizga emas, sizning do'stingizga e'tibor qaratdi. Sizni "Nima kilish kerak?" degan savol qiynaydi. O'sha bola bilan bir "chekkaga" chiqib, gaplashib olish hayolingizga keladi. Ammo mana shu niyat to'g'rimikin, siz buni bilmaysiz. O'z emosiyalaringizga bo'ysunasiz. Emosiyalar esa sizni qasd olishga, baxti chopgan bolani bir "o'qitib" qo'yishga, orani "o'g'il-bolachasiga" ochiq qilib olishga chaqiradi. Ammo 17-18 yoshimizdagi bu xis-tuyg'ular - 40-50 yoshli odamga jizzakilik, hovliqmalik, o'ylamasdan ish tutish bo'lib ko'rinishi aniq.

Demak, yosh o'tgan sari konfliktlarning mazmuni ham, ularga bo'lgan munosabat ham o'zgarib boradi. Konfliktlar murakkablashib boradi, shunga yarasha odamlarning hayot tajribasi ham bosiqlik, mulohazakorlik, jiddiylik tomon o'zgarib boradi. Chunki inson ulg'aygan sari o'z xis-tuyg'ularini jilovlashga, ularni ma'lum tartibga solishga, ularni boshqarishga o'rganadi. O'z emosiyalarini boshqarish esa ziddiyatli vaziyatlarda nizolarning kuchayib ketmasligi, ularning chuqurlashmasligi, konfliktlarning to'g'ri yechimlari topilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Hayotda shunday konflikt vaziyatlar bo'ladiki, oddiy narsa bahona bo'lib, oilalar buzilib ketadi, odamlar biri birini o'ldirib qo'yadi, birovning joniga qasd qilinadi. Keyinchalik umr bo'yi nima uchun mana shunday amallarni qilganini ular tushuntirib bera olmaydi. Bunday voqyealarni OAV orqali juda ko'p kuzatsa bo'ladi.

Masalan, qurilishda ishlaydigan ikki do'st orasida baxs kelib chiqadi. Biri ikkinchisini haqoratlab, buralab so'kadi. Bunga chiday olmagan odam uni itarib yuboradi. Do'sti boshi bilan betonga tushadi va o'ladi. Yana bir hayotiy voqyea, qo'shnilar orasida janjal kelib chiqadi. Janjallashayotgan qo'shnilar yonidan o'tib ketayotgan umuman ularga notanish odam, otilgan o'qdan nobud bo'ladi. Qo'shnilardan biri qotillik uchun qamoqqa hukm qilinadi. Yosh oila, ya'ni yangi turmush qurgan eru-xotin ko'chada ketayotgan bo'ladi. Bir notanish yigit ularga

kulib qaraydi. Er “Nimaga senga qarayapti?”- deb jahli chiqadi. Uyga kelganda aybi bo’lmagan xotinini urib, do’pposlaydi. Shu bilan, ko’chada xotiniga qaragan odamni jazolaganday bo’ladi, ammo xotini ko’nglida urish-do’pposlashdan so’ng mehr qoldimi, bu masala bilan qiziqmaydi. Bu voqyealar oddiy hayotdan olingan.

Demak, konfliktlar hayotimizning har bir bosqichida kelib chiqishi mumkin bo’lib, inson ulardan o’zini himoya qilishga doim tayyor turishi kerak. Chunki konfliktlar qo’qqisidan, odam ularni batamom kutmagan vaqtda, konflikt kelib chiqishining umuman ilojisi bo’lmagan hollarda ham vujudga kelishi va inson hayoti va tinchligin buzishi mumkin.

Shuning uchun, **konfliktlarning kelib chiqish qonuniyatlari qanday** va vujudga kelgan **konfliktning ildizlari va sabablarini tahlil qilish yo’llari nimalardan iborat** degan masalalar dolzarblik kasb etadi. Konfliktlarning kelib chiqish qonuniyatlarini o’rganish ularni ilk vujudga kelish jarayonidayoq bilib olish va oldini olish choralarini ko’rish imkoniyatini yaratadi. Konfliktning kelib chiqish sabablarini tahlil qila olish esa, vujudga kelgan konfliktning to’g’ri yechimini topishga qo’l keladi.

Kuzatishlar shuni ko’rsatadiki, 80% konfliktlar ularning ishtirokchilari hoxish va irodasiga qarama-qarshi o’laroq, ular istagiga qarshi ravishda vujudga keladi. Ya’ni, kamdan kam hollarda konflikt ataylab tayyorlanib, amalga oshiriladi. Ammo nima uchun, biz konfliktni ataylab tayyorlamagan bo’lsak ham, ular yuzaga keladi?

Chunki bizning psixikamiz va psixologiyamiz o’zimizga qaratilgan agressiyaga qarshi agressiya bilan javob qaytarishga, ziddiyatda eng avvalo o’zini himoya qilishga, kezi kelganda, o’zini muhofazalash uchun, xujum qilishga tabiatan kodirovka qilingan bo’ladi, mana shunday o’zini tutishga biz tabiatan ma’lum darajada o’rgatilgan, tayinlanganmiz.

Agar inson konfliktning ilk qadamlaridanoq, “mana, konfliktning birinchi xususiyatlari boshlandi, ular nima oqibatlarga olib kelishi mumkin, kel, ulardan aql bilan o’zimni omon saqlab qola qolay”, desa, demak, u konflikt vaziyatlarga to’g’ri munosabat bildirgan bo’ladi. Chunki, ziddiyatni boshlayotgan odamning bir, ikki

minutdan so'ng emosional-psixologik kayfiyati umuman o'zgarishi mumkin, boshqa emosional-psixologik kayfiyatda u o'zini batamom boshqacha tutishi mumkin. Shu bois, ko'pchilik oilalarda, erining qo'li yengilligini bilgan xotinlar erining jahli chiqsa, hech bo'lmaganda qo'shnining uyiga chiqib, jon saqlaydi. Chunki, bir-ikki soatdan keyin, eri o'ziga kelganida, balki u o'z xotini urganligiga ichida achinar...

2. Maktab o'quvchilarining psixologik xususiyatlari

O'smirlik insonning balogatga yetish davri bulib, uziga xos xususiyati bilan kamolotning boshka pogonalaridan keskin farklanadi. Usmirda ruy beradigan biologik uzgarishlar natijasida uning psixik xayotida tub burilish nuktasi vujudga keladi. Kamolotning mazkur pallasida jismoniy usish va jinsiy yetilish amalga oshadi.

Bolaning buyi 11-12 yoshida yiliga 6-7 sm, xatto 10-sm gacha usishi mumkin. Birok bu boskichda kizlar ugil bolalarga karaganda tezrok usadilar. Bu usish 13-14 yosh oxirlarida ugil bolalar va kizlarda tenglashadi. Un besh yoshga kadam kuyganda ugil bolalar kizlarni ortda koldirib ketadilar. Shundan keyin to umrining oxirigacha usishda ugil bolalar ustunlik kiladilar.

Usmirlik davrida buy bilan tana nomutanosib ravishda usadi, natijada bolalar orik, nimjon va novcha bulib kurinadilar. Buylari tez usganligi uchun kiyimlari kiska vakt ichida kalta bulib koladi, bu esa ularning ruxiyatiga kattik ta'sir kiladi, guyoki atrofdagi odamlar unga karayotganday, «ukasining kiyimini kiyib olganday» tuyuladi. Usmir ichki organlarining usishida xam shunday nomutanosiblik buladi. Upka sigimi kattalashadi, yurak faoliyati kuchayadi, lekin kon tomirlari kengayishi bundan ortda koladi, natijada o'smir tez charchaydigan, tezda rangi uchadigan, xolsizlanadigan, boshi aylanib, xatto yikilib koladigan buladi. Tez usayotgan organizm kuprok oksil moddalarini, kuprok kislorodni talab kiladi, bularni esa bola tez xarakat kilish orkaligina oladi. Shuning uchun xam o'smirning xarakatsiz bir yerda turib kolishi unga kiyinchiliklar keltirib chikaradi. Usmirning sinfda, dars paytida xam urnidan turib ketishi, u yon – bu yonga karashi, kimirlashi, sumka-sidan biror narsani olib yeb utirishining sababini xam shu bilan izoxlash mumkin. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar bilan mashgulot olib borayotgan ukituvchi birmuncha «raxmdil, kechirimli, ba'zan uzini kurmaganga oladigan» xam bulishiga tugri keladi.

Mazkur davrda tananing umumiy xajmidan 7-8 foizini kon tashkil kiladi, kon

bosimi birmuncha oshadi, simob ustunining 110-115 mm darajasida buladi. Yurak kiskarishining chastotasi sekinlashadi, masalan, 11 yoshda minutiga 85-90 marta ura, 14-15 yoshlarda 70 martagacha pasayadi. Upkaning tiriklik sigimi kuyidagicha buladi: ugil bolalarda – 11 yoshda 1900-2000 ml, 15 yoshda – 2600 – 2700 ml, kizlarda – 11 yoshda 1800-1900 ml, 15 yoshda 2500-2600 ml. Shuning uchun nafas olish xar dakikada 2 marta kamayadi. Usmirlarda ichki sekresiya bezlari funksiyasi xam uzgaradi, bu esa jinsiy yetilishni tezlatadi. Markaziy nerv tizimida kuzgaluvchanlik uzgaradi, natijada yakkol xis-tuygular paydo buladi. Kalkonsimon bez faoliyatining kuchayishi kuzgaluvchanlik, asabiylashish va tolikishni keltirib chikaradi. Bosh miya kobigida tormozlanish jarayonining susayishi shiddatli emosional kechinmalarni vujudga keltiradi, xulk-atvorda parokandalik, gayritabiiylik paydo buladi.

Usmirlar jinsiy yetilish sirlarining 17 foizini ota-onadan, 9 foizini ukituvchilaridan, 4 foizini maktab vrachidan va kolganlarini kucha-kuydan, urtoklaridan va dugonalaridan bilib oladilar. Goxo o'smirlar orasida axlokan tubanlashuv xollari ruy berishi mumkin. Ularni bunday kiliklardan, nopok gurux va tudalardan xalos etish maksadga muvofikdir.

Usmirlik yoshida bolalikdan kattalik xolatiga kuchish jarayoni sodir buladi. Usmirda psixik jarayonlar keskin uzgarishi bilan aqliy faoliyatida xam burilishlar seziladi. Ukituvchining yangi MA'RUZAni batafsil tushuntirishi, darslarni ma'ruza shaqlida olib borilishi uni zeriktiradi, ukishga lokaydlik tugdiradi. Ilgari ukuv materialini ma'nosiga tushunmay yodlab olishga odatlangan o'smir endi zarur urinlarni mantikiy xotira va tafakkurga suyangan xolda uzlashtirishga xarakat kiladi, talabchanlik unda kuchayadi. Shu vaktgacha odobli, dilkash bulgan o'smir kutilmaganda kaysar, intizomsiz, kupol, serzarda bulib koladi. Kattalarning talablari, kursatmalari mantikan ixcham, dalillarga asoslangan, yetarli obyektiv va subyektiv omillarga ega bulishi kerak. Usmir xulkidagi bunday uzgarishlar tajribasiz ukituvchi yoki ota-onalarni kattik tashvishga soladi, munosabatlarini uzgartiradilar. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar kelib chikadi.

Ayrim pedagoglar o'smirlik davri inkirozi sabablarini bilishga intiladilar.

Xush, o'smirning psixik usishini xarakterga keltiruvchi kuch nima?

Usmirning psixik usishini xarakterga keltiruvchi kuch – uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni kondirish imkoniyatlari urtasidagi karama-karshiliklar tizimining namoyon bulishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlar va karama-karshiliklarni psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkab-lashtirish orkali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta – sekin yukotish mumkin.

Usmirlik chogida rivojlanishning jadallashuvi – akselerasiya yakkol kuzga tashlanadi. o'smirlik inson shaxsi kamolotining muxim boskichi xisoblanadi. Usmirlik chogida goyat katta axamiyatga ega bulgan psixologik uzgarishlar ruy beradi, bolaning muayyan ijtimoiy turmush sharoitida keyingi kamol topishi uchun zarur sifatlar ta'lim –tarbiya ta'sirida paydo buladi, barkaror, mustax-kam iz koldiruvchi ijobiy xislatlar namoyon buladi.

Usmir kamolotga erishgan sayin uning psixik dunyosida yangi fazilatlar va sifatlar paydo bula boshlaydi, psixikasida keskin kayta kurish sodir buladi. Uzgarishlar uning oldiga yangi talablar kuyadi, bu esa uz navbatida kuprok xukuk va erk berilishini, eng avvalo mustakil karorga kelish va xulk – atvorini makbul deb xisoblab amalga oshirishni takozo kiladi. Psixik takomillashish, kamolotga intilish, nisbiy barkarorlik o'smirlik davrining eng muxim xususiyatlari xisoblanadi.

Xozirgacha balogatga erishish va jinsiy yetilishning jadallashishi tugrisida bir butun, yaxlit ilmiy nazariya mavjud emas. Shuning uchun usishdagi jadallashuv, ya'ni akselerasiya buyicha xam muayyan nazariya yaratilmagan. Ana shu boisdan xar xil ilmiy asosdagi bir-biridan farkli, e'tirozli kator nazariyalar paydo bulgan. Bular kuyidagilar:

Geliogen nazariyasi. Bu nazariya 1936 yilda chet el olimlari tomonidan yaratilgan bulib, uning asosiy moxiyati akselerasiya xodisasi kuyosh nurining bevosita ta'siri bilan vujudga keladi, degan goyadan iboratdir. Guyoki serkuyosh ulkalarda rivojlanish tezlashar emish, lekin akselerasiya xodisasi shimolda xam, serkuyosh ulkalarda xam sezilmokda. Demak kisman tugri bulishi mumkin xolos.

Geteroziya nazariyasi. (turli-tumanlik) Turli millat vakil-larining aralash nikoxga kira boshlagani bunga yorokin misoldir. Mazkur nazariyaga muvofik psixik dunyodagi kayta kurishlar nasliy belgilar keskin uzgarishiga sabab buldi, natijada farzandlarning usishida kuchayish, jadallashish, akselerasiya xodisasi vujudga keldi.

Urbanizasiya nazariyasi. Jamiyat rivojlanishida shaxarlarning roli ortishi, shaxar va kishlok turmush tarzining bir-biriga yakin-lashuvi bilan boglik deb karaladi. Lekin bu xam sabab bula olmaydi.

Nutritiv nazariya. Bu goyaning tub moxiyati shuki, akselerasiya odamlarning ovkatlanishi yaxshilanishi, iste'mol kilinayotgan ozukalarda darmondorilar mikdorining kupayishi sababli vujudga keladi. V-6, V-12 darmondorilari (vitaminlari) va foliyev kislotasini odamlar kuprok iste'mol kilishi mazkur xolat namoyon bulishining asosiy omili emas. Kisman tugri bulishi mumkin.

Nurlanish nazariyasi. Bu nazariya namoyondalarining fikricha, yer yuzida rentgen kurilmalarining kupayishi, atom, vodorod va neytron bombalarining portlashi natijasida insonda radioaktiv moddalar, radiasiya nurlanishi darajasining sezilarli darajada ortishiga olib keladi. Yer kurrasiga tarkalgan zaryadlar bilan inson organizmining nurlanishi usishini kuchaytirishi, ya'ni akselerasiyani yuzaga keltirishi mumkin. Lekin me'yoridan ortik xar kanday nur, jumladan rentgen nuri salbiy ta'sir utkazadi.

Ijtimoiy sharoitning yaxshilanishi nazariyasi. Yashash sharoitlarining yaxshilanib borishi, keng kulamda sanitariya va gigiyena tadbirlarining amalga oshirilishi, ovkatlanish sifatining ortishi, ota-onadan farzandga nasliy belgilarning (genlarning) bir tekis utishi kabi omillar akselerasiya jarayonini tezlashtiradi, degan fikr kator mamlakatlardagi tadkikotchilar orasida keng tarkalgan.

Shu nazariyaga asoslanib shu narsani kushish mumkinki, odamlar iste'mol kilayotgan ozik-ovkat maxsulotlari tarkibida sun'iy-kimyoviy maxsulotlarning, jumladan kishlok xujalik ekinlari usishini tezlatadigan, xosildorlikni kutaradigan kimyoviy moddalar ozik-ovkat maxsulotlari tarkibida odam organizmiga xam utadi, bu xam albatta jismoniy rivojlanishga turtki berishi mumkin. Bundan

tashkari ilmiy texnika rivoji, axborotlar uzatish va kabul kilish tizimlarining uzgarishi odamlarning aqliy rivojlanishlariga ta'sir kursatadi, jismoniy mexnat kamayishi odamlarning aqliy mexnat bilan kuprok shugullanishlariga kulay imkoniyatlar yaratib berishi xam akselerasiya jarayonlarini vujudga keltirishi mumkin.

Ijtimoiy akselerasiya nazariyasi. Bu ilmiy nazariyaning asoschilaridan biri, yirik fiziolog olim A. A. Markosyandir. Uning fikricha, hozirgi zamon kishilaridagi bilimlar xajmini XX asr yarmidagi bilimlar xajmiga takkoslash orkali bolalardagi usish jarayonini aniklash ijtimoiy akselerasiya deyiladi. Bolalardagi akselerasiyaning sababi: birinchidan, ota-onalarning umumiy saviyasi yuksalgani, ikkinchidan shaxsiy va ijtimoiy turmushda axborot vositalari tarmogining kengayganligi, ya'ni televideniye, radio, telefon, kino, madaniyat muassasalari tarmogi va xokazolardir.

Bizningcha, mana shu omillar katoriga shaxslararo munosabat-larning tugri yulga kuyilishi, odamlarning okilona, odilona mulokotga urgangani, jamoa va guruxlarda ijobiy psixologik muxit yaratilgani, asabiylashish, parokandalik kamayganini xam kushish maksadga muvofikdir.

Usmirning «tarbiyasi qiyin» bulib qolishiga nimalar sabab bulishi mumkin?

Bola aloxida olingan shaxs sifatida uz-uziga munosabatini shaqllantirish jarayonida asosan ikki boskichni boshidan kechiradi. Bu boskichlar o'smirlik yoshining ikki xil davriga – kichik o'smirlik davri va katta o'smirlik davriga tugri keladi. Birinchi boskichda bola uzini «bolalar» dan ajratib, endi uzini kattalar olamiga mansunbligini ta'kidlamokchidek buladi. Bu davr uchun kattalarning xatti-xarakatlariga taqlid kilish va uzining mana shu yarashmagan kiliklariga tankidiy baxo bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yakin bulishi uchun yordam berayotgan bir gurux tengdoshlari bilan ortik darajada boglik bulib kolishi va shu singari xolatlar xarakterlidir.

Ikkinchi boskichda endi uzining yosh bola emasligiga shubxa kilmaydi va u uzligini anik anglay boshlaydi, uz shaxsini uluglab, uziga xos xarakatlar kila

boshlaydi. Bu davrga kelib, uning xarakatlari uzi bilan urtok bulgan bir gurux tengdoshlariga boglik bulmay koladi. Atrofidagi xar kanday kishining uning shaxsi xakidagi tankidiy fikrni eshitgisi kelmaydi, xato bulsa xam uz fikrida kat'iy turishga xarakat kiladi. Shuning uchun xam bu davrda bolaga ta'sir utkazish metodikasiga jiddiy e'tibor berish darkor.

Usmirlik yoshida yuz bergan uzgarishlar, jumladan fiziologik uzgarishlar nafakat uning xulkiga, xatti-xarakatlariga ta'sir etibgina kolmay, uning bilishga bulgan munosabatlariga, mexnat va uning turlariga munosabatlarini xam uzgartirib yuboradi.

Usmirning nerv tizimi jiddiy uzgarishlarga duch keladi. Miya pustlogining analitik-sintetik faoliyati murakkablashadi. Xotiraning xajmi kursatmali material va faktlarni eslab kolish xisobiga emas, balki mantikan boglangan materialni eslab kolish xisobiga oshib boradi. Usmirlar uzlashtirib oladigan mavxum tushunchalar doirasi kengayadi. Ayni vaktida muxim narsalarni muxim bulmagan narsalardan ajrata bilmaslik xam kuzatiladi. Ijtimoiy faoliyatga kizikish ortadi. Faollik, tashabbuskorlik, baxodirona ishlar va romantikaga, dustlik va urtoklikka intilish bu yoshga xos bulgan xususiyatdir.

Usmir endi bola emas, u tevarak-atrofidagi narsaga juda xam kizikadi, faolligi xam zur, xam jismoniy, xam aqliy mexnatga ishtiyoki juda katta. Uning bu faolligini yulga solishga urganish lozim, bolalarni axillik bilan ish kurishga urgatish, ularning keraqli bilimlar bilan kurollanishiga, jamoat ishlarini olib borishni urganishiga, xam aqliy mexnat soxasida, xam jismoniy mexnat soxasida uyushkoklik bilan ishlashni urganishiga yordam berish kerak. Usmirning faolligi – ijtimoiy xayotda uz urnini, uzining boshka kishilar xayotidagi rolini tushuna boshlagan kishining faolligidir. Uning faolligidan axlokiy tarbiyada xam, aqliy tarbiyada xam foydalanish kerak, o'smirning vokea-xodisalar moxiyatini bilib olishdagi ildamligidan sinf ukuvchilari faolligini oshirishda, namuna kilib kursatishda, ukituvchi bayon kilgan nazariy bilimlarga xayotiy misollar keltira olish kunikmalarini xosil kilishda xam foydalanish zarur. Buning uchun xar bir o'smirga uning kungliga yokadigan ish topib berish lozim. Turli xil tugaraqlarni

(texnika ijodkorligi, konstruktorlik, aviamodelchilar, tabiatshunoslar), fakultativ ishlarni, turizm, ijtimoiy faoliyatni taqlif etish mumkin. Usmirlarni yashil daraxtlarni kuriklashga, bog, urmon va dala zararkunandalariga karshi kurashga, tuprokni muxofaza qilishga, daraxtlar utkazishga, balik boyliklarini kuriklashga, turar joy va maktab atrofini obodonlashtirishga karatilgan ommaviy ishlarga jalb qilish foydalidir.

Usmirlarni tarbiyalash, ularga raxbarlik qilish san'ati shundan iboratki, ular bu raxbarlikni mumkin kadar kam xis qilsinlar.

Ukituvchilar jamoasi xar kancha urinishidan kat'iy-nazar, ta'lim jarayonida «tarbiyasi kiyin» o'smirlar xam uchrab turadi. Bunday bolalar o'smirlik yoshiga xos umumiy xususiyat – uz imkoniyat-lariga me'yoridan ortik yukori baxo berishlari asosida eng kup sodir buladi. Hozirgi davrda bunday ukuvchilar bilan yakkama-yakka ishlash usuli yaratilgan, fe'l – atvordagi nuksonlarning xatti-xarakati nosoglomligining oldini olish va tuzatish yullari ilmiy asosda ishlab chikilgan. Tadkikotchilarning kursatishicha, tarbiyasi kiyin, injik, xulki salbiy bolalarning kelib chikishining ijtimoiy sabablaridan tashkari, pedagogik va psixologik sabablari xam mavjud. Ukuvchilarda nojuya xatti – xarakatlar paydo bulishining sabablari va turtkilari xar xildir. Konunni buzishi yoki koidaga xilof ish qilishi darajasiga karab tarbiyasi kiyin o'smirlar jinoiy konunbuzar va oddiy koidabuzar (tartibbuzar) guruxlariga ajratiladi.

Shaxsning biologik usishidagi nuksonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, ukishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi kusurlar tarbiyasi kiyinchiliklarni keltirib chikaradi. Shaxsning psixik usishidagi kamchiliklar, chunonchi, aql-idrokning zaif rivojlangan, irodaning bushligi, xissiyotning kuchsizligi, zarur extiyoj va kizikishlarning mavjud emasligi, o'smirning intilishi bilan mavjud imkoniyati urtasidagi nomutanosiblik va xokazolar xatti-xarakatlarni izdan chikaradi. Shaxsning fazilatlarini tarkib topishidagi nuksonlar: axlokiy xislarni yetishmasligi, ukituvchi, sinf jamoasi, oila a'zolari bilan notugri mulokot, ishyokmaslik, bush vaktini tugri taksimlamaslik va boshkalar xam salbiy kiliklarni vujudga keltiradi. Shaxsning bilim, ukuv

faoliyatidagi kamchiliklari: aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muxim bilim, kunikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar; maktabdan tashkari muxitning ta'siridagi nuksonlar, chunonchi, oilada pedagogik–psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota–onaning ichkilikka va shaxvoniy xayotga berilishi, balogatga yetmagan tengkurlarning ta'siri madaniy – ma'rifiy ishlab chikarish jamoalari xamda jamoatchilik kurshovidagi kamchiliklar xam tarbiyasi qiyin o'smirlar kupayishiga sabab buladi.

Maktab o'quvchilarining tipologik xususiyatlariga binoan bir nechta shartli guruxlarga ajratish mumkin:

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning birinchi guruhi orsizlar yoki subutsiz, surbetlar deb ataladi. Ular o'z xatolarini bila turib qonun va qoidalarni buzadilar, noma'qul ishlarni qiladilar. Bunday bolalar betgachopar, ujar tabiatli, raxm-shafqatsiz, «zo'ravon» bo'ladilar.

Ikkinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar yaxshi va yomonni tushunadilar, biroq mustaqil e'tiqodga, barkaror yuksak ris–tuyg'uga ega emasliklari sababli «orqa kanot» da turib ziddiyatli, nizoli vaziyatlarni keltirib chiqaradilar. Bu turdagilar ko'pincha qilmishlariga tavba qiladilar, so'z beradilar, lekin ma'lum fursat o'tgandan sung bergan va'dalarini butunlay unutadilar.

Uchinchi guruxga mansub o'quvchilar shaxsiyatparastlik tufayli tartibbuzarlik yo'liga kirib qoladilar.

Turtinchi guruhga injiq tabiatli o'quvchilar kiradi. Ular sinf jamoasida o'z o'rnilarini topa olmaganidan qayg'uradilar. Bunday o'quvchilar ginaxon, arazchi bo'ladilar, shuning uchun sinf jamoasida kamsitilayotgandek kechinmalar bilan yashaydilar.

O'quvchilarning xatti-xarakatlarini ijobiy yo'nalishga burib yuborish uchun ularda ma'suliyat, g'urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak xislarni tarkib toptirish lozim. Ularga mos topshiriklar berish, ma'suliyat xissini shaqllantirish orkali ijobiy fazilatlar paydo kilish mumkin.

3. Maktab o'quvchilarida yuz beruvchi konfliktlar sabablari, konfliktogenlar va ularning turlari

Konflikt vaziyatlarning kelib chiqishida biz bilishimiz zarur bo'lgan narsa shuki, konfliktlarning kelib chiqishida "*konfliktogen*"lar juda muhim rol o'ynaydi. Konfliktogen – konfliktga imkon beruvchi, konflikt uchun sharoit yaratuvchi sifatida tarjima qilinadi. **Konfliktga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlar, amallar, yoki harakatsizlik konfliktogen deb ataladi.**

Bu ta'rifda muhim bo'lgan so'zlardan biri "mumkin bo'lgan"dir. Chunki u - konfliktogenlarning havfini, ularning ichki tahdidini to'g'ri belgilab beradi. Konfliktga olib kelishi aniq bo'lmagan, ya'ni konfliktga olib kelishi "mumkin bo'lgan" narsalar ziddiyatga nisbatan uyg'oqligizgiz va sezgirligingiz, ogohliligingizni tinchlantirib, sizni aldab qo'yishi mumkin. Tanishingizga nisbatan har doim salom-alikni quyuq qilsangiz-u, bir marta o'z ishlaringiz bilan o'ylanib, unga har doimdagidek e'tibor qaratmasdan, oddiy "Salom?" deb o'tib ketsangiz, u sizdan qattiq hafa bo'lib qolishi mumkin. "O'zini katta tutyapti, behurmatlik qildi, nima men uning arpasini xom o'rdim-mi?! Salom bermasa o'ziga?! Ja, katta ishga o'tdim deb, dimog'i ko'tarilib ketibdi-mi?..." Orada noqulay ahvol kuzatiladi. Keyingi gal u siz bilan sovuq, rasmiy muomala qiladi. Endi siz o'ylanasz. "Nima bo'ldi bunga?! Nimaga o'zini bunday tutyapti?! Xuddi men bilan urishib qolganday.. Uni hafa qilmovdim, shekilli..."

Konfliktogenlarning ayyorligi shundaki, biz o'zimizning so'zlarimiz va amallarimizga emas, balki bizga aytilgan boshqa odamlarning so'zlari va amallariga ko'proq e'tiborliroqmiz. Boshqa odamlarning so'zlaridagi intonasiya, mimika va ma'no bizga uning bizga nisbatan munosabati haqidagi axborot, ya'ni ma'lum informasiyani bildiradi va beradi. Ammo o'zimiz birovlariga so'z aytganimizda, har doim ham, so'zlar ma'nosi nimani anglatmoqda, bizning mimikamiz, ovozimiz, qo'l harakatlarimiz, intonasiyamiz yana qanday qo'shimcha axborotni birovlariga uzatayotganligiga e'tibor bilan qaramaymiz. Ko'pchilik hollarda bu narsa intuitiv tarzda kechadi.

Demak, biz boshqalardan kelayotgan informasiyani diqqat bilan filtrlaymiz, o'zimiz jo'natayotgan informasiyani esa – filtrlamasdan, to'g'ri jo'natamiz. Shu nuqtai nazardan, hammamiz o'zgalardan kelayotgan axborotga emosional yondoshamiz, o'zimizdan ketayotgan informasiyani esa ko'proq shundayligicha, ya'ni boricha jo'natamiz. Ba'zan xotin-qizlar haqida “Ayollar o'zi aytgan gaplarga diqqat qilmaydi, ammo o'zi haqida boshqalar aytgan so'zlarni diqqat bilan eshitadi”, deyiladi. Ammo aslida biz hammamiz shunday qilamiz. Bu holat, o'z manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan intuitiv himoyaning natijasi hisoblanadi. Ammo birovlarining manfaatlarini ham muhofaza qilish, yoki hurmatlash lozimligi hayolimizga ham kelmaydi. Demak, konflikt vaziyat - biz jo'natayotgan va qabul qilayotgan axborotlar orasidagi xissiy-emosional hamda psixologik muvozanat buzilganda yuzaga keladi. Ana shunday hayotda uchrab turadigan konfliktogen vaziyatlar chuqur ziddiyatlarning kelib chiqishini ta'minlashi mumkin.

Konfliktogenlar ko'payib, ular majmuaga aylanganda, konflikt tug'iladi. Konfliktogenlar eskalasiyasi qonuniy ravishda konfliktga olib keladi. Bizga kelayotgan axborotlar konfliktogenlar bilan to'lgan bo'lsa, biz unga tabiiy ravishda o'zimizdagi konfliktogenlar bilan javob beramiz.

Insonlararo konfliktogenlarning to'qnashuvi konfliktga olib kelishidir. Agar siz hayotingizda ro'y bergan biror konfliktni mana shunday tarzda tahlil qilsangiz umumiy ssenariy o'xshash bo'lganligiga iqror bo'lasiz.

Konfliktogenlar tahdidiga uchragan odam, odatda, o'zining psixologik va emosional holatini himoya qilishga o'tadi. Shu bois, u konfliktogenga nisbatan o'zidagi emosional tahdid bilan munosabat bildiradi. Mazkur emosional tahdid ko'pchilik hollarda ovoz, mimika, intonasiyadagi agressiya bilan ifoda qilinadi. Agressiyaga doim o'ziga yarasha agressiya bilan javob qaytariladi. Ammo o'ziga qaratilgan agressiyani bosib ketish uchun javobiy agressiya yanada kuchliroq bo'ladi. Chunki odam “buni adabini berib qo'ymasam, shunday bo'laveradi”, deb o'ylaydi. Natijada har ikki tomonda konfliktogenlar miqdori keskin orta boradi. Inson emosional va psixologik holati unga qarata yo'naltirilgan haqorat, piching,

kesatiq, so'kish, nafsoniyatga tegish, zo'ravonlik, o'z fikrini o'tkazishga intilish, tazyiq kabilarga, doimiy ro'y beradigan adolatsizlikka bundan o'zgacha munosabat bildirsa olmaydi.

Insonlar orasidagi turli munosabatlarni tartibga solish uchun har bir millatda etik va estetik qadriyatlar shakllantiriladi. Shu bois, odamlar milliy axloqiy qadriyatlar va normalar asosida tarbiya qilinadi.

Bizga eng kichik paytimizdanoq birovni bekordan bekorga hafa qilmaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik, so'kmaslikni o'rgatishadi. Ammo hamma ham ana shu normalarga rioya qilmaydi. Eng qiyin bo'lgan narsalardan biri, o'zingni juda qattiq hafa qilgan odamni kechirish hisoblanadi. Ayb qilgan odamni kechirish lozimligi hamma dinlarda uqtiriladi. Xristian dinida "sening bir yuzingga urgan odamga, ikkinchi yuzingni tut", deb aytiladi. Islom dinida muqaddas bayramlarda dushmanlar bir-birlarining gunohlaridan o'tishi lozimligi tayinlanadi. Ammo real hayotda birovning aybidan kechgan odamlar juda kam topiladi. Shu bois, o'zbek xalqi "kechirimli bo'lish mardning ishi" deydi. O'zini muhofaza qilish insondagi tabiiy va eng kuchli instinktlardan hisoblanadi. Shu sababli odamlar zarracha bo'lsa ham o'ziga zarar bo'lmaslikka urinadi.

Konfliktogenlar eskalasiyasi yuzaga kelmasligi uchun:

- konfliktogenlarning o'zingiz va atrofdagilar yuragida yig'ilishiga yo'l qo'ymaslik;
- konfliktogenlar vujudga kela boshlaganda esa, ulardan o'z fikri va ongini ozod qilish yo'llarini qidirish;
- o'zimizda vujudga kelishi mumkin bo'lgan konfliktogenlar boshqalar ko'nglida ham yuzaga kelishi mumkinligini nazarga olishimiz darkor.

Mana shu natijalarga erishishda konfliktogenlarsiz muomala yuritish qoidalari qo'l keladi:

1. Konfliktogenlardan foydalanmang, ularni o'z vaqtida, ildiz otib ketmasidan yo'qotishga harakat qiling
2. Konfliktogen bilan to'qnashganda unga o'zingizdagi konfliktogen bilan javob qaytarmang

3. Konfliktogen bilan munosabat bildirayotgan odamga, shuningdek umuman har qanday suhbatdoshingizga empatik (birovning xis-tuyg'ularini anglash asosida) munosabat bildiring. Empatik munosabat o'rnatish uchun suhbatdoshingizga xush keladigan mavzularni tanlang, unga komplimentlar ko'rsating, kulib gaplashing, uning so'zlarini diqqat bilan eshiting v.h.

4. Imkon qadar ko'proq ijobiy xis-tuyg'ular ulashing. Konfliktogenlar maxsus garmonlar natijasi hisoblanadi. Agar o'zingizning kayfiyatingizni yaxshilik sari yo'naltirsangiz, konfliktogenlarni yengishga imkon tug'iladi. Konfliktogenlar insonni kurash, ziddiyat va nizoga yo'naltiradi. Bu esa organizmda adrenalinning ko'payishiga olib keladi. Adrenalin konfliktgen bilan qo'shib, g'azab, jahl, agressiyaning kuchayishiga sabab bo'ladi. Odamning qattiq g'azablanishi noradrenalinni keltirib chiqaradi. Uning inson salomatligiga bo'lgan juda katta salbiy ta'siri mavjud. Ammo chiroyli suhbat inson organizmida endorfin, ya'ni "baxt garmonlarini" yuzaga keltiradi. Shundan foydalanishga harakat qiling.

Konfliktogenlarning ko'pchiligini kuyidagi turlarga ajratish mumkin:

- o'zini ustun qo'yish;
- agressiyaga moyillik;
- egoizm.

O'zini ustun qo'yish kuyidagi amallarda namoyon bo'ladi

O'zini ustun qo'yishning ochiq ko'rinishlari: buyruq berib gapirish, tahdid qilish, birovni niqtab turish, salbiy munosabatlar, tanqid, ayblash, birov ustidan kulish, istehzo, sarkazm, piching, kesatiq.

Yashiringan ustun qo'yish hollari: tashqi ko'rinishdan yaxshi munosabat sifatida qabul qilsa bo'ladigan ustunlik. "Tinchlaning", "Aqlli odamsiz-u, ammo...", "Hayronman, nimaga hafa bo'lasiz...", "Shuni ham bilmaysizmi?!", bu vaziyatlarda tashqi ko'rinishdan mayin ohang tanlansa ham, bu holat konfliktogen holat sifatida baholanadi. Masalan, er xotiniga "Nihoyat shirin ovqat yer ekanmiz-da", - deydi. Xotin hafa bo'ladi. U "Nima xech qachon shirin ovqat pishirmaganmanmi?!", deb o'ylaydi.

Mantanchoqlik: o'z marralari va yutuqlari haqida ko'pirib gapirish, shu bilan

birga o'zgalar marralarini pastga urish, ularni "o'z o'rniga qo'yib qo'yish" istagi.

Qat'iylik, fikr va qarashlar keskinligi: o'z fikrlarining to'g'riligiga haddan ziyod ishonish, qarashlarni bildirishdagi keskinlik, faqat o'zi to'g'ri so'z ayta olishi mumkinligiga ishonch, birovlar fikrini o'ylab ham ko'rmaslik, "Bizning oyimiz rahbar bo'lganlar-da, shuning uchun o'zlarini juda aqlli deb biladilar...", "Hamma narsani bilaman deysiz-u, oddiy choy damlab berolmaysiz...", "Faqat leksiya o'qiysiz, oddiy gapira olmaysiz...", "Sen nimani bilarding..." qabilidagi so'zlarni ishlatish.

Bu vaziyatdagi konfliktogenlar "Hamma erkaklar – erkak", "Hamma xotinlar – yolg'onchi", "Hamma – o'g'ri", "Bo'ldi gapingni to'xtat...", "E, bugungi yoshlar buzilgan...", "E, kattalar hyech narsaga tushunmaydi.." kabi kirish so'zlar bilan ham anglashiladi. Masalan, yoshlarni qiziqtirgan muzika, kiyim, moda, o'zini tutish, salomlashish kabilar kattalarning jig'iga tegishi mumkin. Bunday fikrlar ochiqchasiga bildirilganda, yoki ularni bola tafakkuriga majburiy kiritishga urinilganda, yoshlar o'z ota-onasidan ma'lum axborotlarni yashirishga tushadi, yoki o'z odatlarini himoya qilish yo'lini tutadi.

O'z maslahatlari va fikrlarini majburiy singdirish va qabul qilinishiga harakat qilish. Odatda, maslahat faqat mana shu maslahat so'ralgan taqdirdagina berilishi lozim. Ammo ko'pchilik hollarda biror muammo muhokama qilinayotgan bo'lsa, o'zini katta tutgan odam, yoki yoshi ulug'roq odam, albatta maslahat qila boshlaydi. Maslahatni esa yo qabul qilish, yoki uni inkor qilish mumkin. Maslahat qabul qilinsa, uni bergan odam xursand bo'ladi, maslahat ochiqchasiga inkor etilsa, uni bergan odam, eng ijobiy munosabatda, "Meni mensimadi, gapimga kirmadi" deyishi mumkin. Masalan, o'zbek oilalari uchun urning o'z xotiniga qanday kiyinish, qayerga borish, kim bilan gaplashish, sochini qanday turmaklash, telefonda qanday, kim bilan, qaysi kunda va qancha vaqt gaplashish, kimga nima deyishini belgilab berishi odatiy hol. Ammo, aslida, bu holat ayol erkini va individualligini cheklash deb baholanadi. Yoki, qaynonaning qanday uy tutish lozimligi bo'yicha o'z kelinini niqtab turishi "tarbiyalash" xususiyatiga kiritiladi.

Hamsuhbati so'zlarini bo'lish. Suhbat faqat bir tomonning emas, balki

ishtirok etayotgan har ikki tomonning muloqoti hisoblanadi. Ammo ko'pchilik hollarda ba'zi odamlar faqat o'z tuyg'ularini gapirishga e'tibor qilib, o'zga odamni eshitishga sabr-qanoat qilishmaydi. Boshqa tomon ham o'z fikrlarini bildirib boshlasa, uning so'zlari keskin bo'linadi, "A, nima deding..." deb eshitilmaydi, o'z hamsuhbatiga e'tiborsizlik ko'rsatiladi. Masalan, faqat qaynona gapiradi-yu, kelini o'z fikrini bildirib olmaydi. Kelinning o'z fikri borligi inobatga ham olinmaydi. Yoki er gapiradi-yu, xotin o'z fikrini bildirishga urinsa, "Nima, sen menga aql o'rgatmoqchimisani?!" qabilida agressiya bilan munosabat ko'rsatiladi. Bu bilan o'z so'zlarining boshqalar fikrlaridan muhimroq ekanligini ko'rsatish, faqat o'zi gapirishga harakat qilish, boshqalarga so'z bermaslik orqali o'z ustunligi ko'rsatmoqchi bo'linadi. O'z ustunligini doimo ko'rsatishga intilish ko'pincha boshqalar huquqlarining kamsitilishi evaziga bo'lishi inobatga olinmaydi.

Informasiyani yashirish: Odamlar hayotida axborot muhim rol o'ynaydi. Axborotni yashirish kishilarda shubha uyg'otadi. Shu bilan birga, axborotni yashirgan kishiga nisbatan ishonchsizlik vujudga keladi. Oqibatda odamlar orasi va munosabatlari buzilishi uchun asos tug'iladi. Erkaklar ko'proq, o'z shaxsiy vaqtining qanday va nimalarga sarflanayotganligini, yoki umumiy mablag'larining miqdorini, ularning nimalarga ishlatilayotganligini, o'z xato va kamchiliklarini yashirishga harakat qilishadi. Ayollar esa erkaklar borasidagi o'z ichki xislatlarini, yashirin iqtisod qilingan pul mablag'larini, erining qarindoshlariga nisbatan haqiqiy munosabatini, bolalarining ba'zi "ayblarini" yashirishga urinishadi.

Birovning ustidan kulish. Birovning ustidan istehzo bilan kulish, uni mas'hara qilish agressiyaning psixologik turlaridan hisoblanadi. Birovning ustidan kulish inson huquqlarini buzishga yo'naltirilgan bo'ladi. Odatda javob bera olmaydiganlar ustidan kulgi qilinadi, yoki ana shu vaziyatda konkret odam kulgiga nisbatan ma'lum sabablarga ko'ra javob qaytara olmaydi. Inson ustidan kulish uning nafsoniyatiga tegadi va uzoq vaqt dilda o'rnashib qoladi. Bolaligida mazah qilingan "semiz"lar, "omi"lar, "qishloqi"lar, "turqi sovuq"lar keyinchalik o'z ustidan kulgan odamlarga qarshi harakat olib borgani, yoki, "birinchi muhabbati"

hamma tomonidan kulgi ostiga olingan yigitlar keyinchalik o'z dushmanlaridan qaqshatgich qasos olgani borasidagi hayotiy misollar ko'p. Ko'pchilik hollarda kulgi ostida qolgan odam qulay vaziyat poylab o'z javobini tayyorlaydi.

Aldash yoki aldashga harakat qilish. Eng ashaddiy konfliktogenlardan hisoblanadi. Ayollar ham, erkaklar ham o'zlarini aldashga yo'naltirilgan harakatlarni kechira olmaydilar. Odatda aldash orqali yuzaga kelgan xissiy-emosional holat juda uzoq vaqt ongda saqlanib qoladi hamda umr bo'yi konfliktogen rolini o'ynab keladi. Aldash orqali odam yuragida yuzaga kelgan alam ko'p hollarda umuman yo'qolmaydi va o'chib ham ketmaydi. Bu alam bot-bot odamlar orasiga yangitdan nizo solinishiga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Hamsuhbatining biror kamchiligi yoki muvaffaqiyatsizligini doimo ta'kidlab o'tishga harakat qilish. Birovlarning ishi yurishmaganidan xursand bo'lish, o'zi yoqtirmagan odamlarning hayotida biror kor-xol bo'lsa, undan quvonish, ba'zi odamlarning ustidan muntazam kulish, kamchiliklarni ro'kach qilish, mana shu holatlarda o'zini yaxshi xis qilish o'zini ustun qo'yishning turlaridan biri hisoblanadi. Muvaffaqiyatsizlik hamma bilan ham sodir bo'lishi mumkin, kamchilik va xato esa, uni tuzatilmagunicha kamchilik va xato bo'lib qoladi, agar tuzatilsa, u xato bo'lmaydi. Muvaffaqiyatsizlikdan hyech kim o'zini muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Shu bois, o'z do'sti, hamkasbi, o'rtog'i, qarindoshi, eri va yoki xotining biror kamchiligini umrbod ushlab olib, doimo uni ta'kidlayverish, uni muntazam esga solish, o'z ustunligini ko'rsatish uchun ro'kach qilish oxir-oqibat juda katta konfliktni keltirib chiqarishi mumkin.

O'z ustidagi mas'uliyatni birovlar ustiga yuklash. Hayotda o'z mas'uliyatidagi vazifalarda befarq yondoshish hollari uchrab turadi. Masalan, ko'p xollarda biror narsa qilib berilishiga va'da qilinadi. Ammo o'zi qilib berishi lozim bo'lgan vazifa boshqalar zimmasiga yuklatiladi. Ammo boshqalar bu vazifani bajarmaydi. Natijada orada ziddiyat vujudga keladi. Masalan, yigit uylanmoqda. Uning o'rtog'i "Men kelinga o'zim zo'r guldasta olib beraman. Buni sen o'ylama", deydi. Ammo ZAGSga ketish oldidan kelinga mo'ljallangan guldastaning yo'qligi ma'lum bo'ladi. Chunki va'da bergan odam, bu ishni boshqa bir yigitga topshirgan

bo'ladi. U yigit guldasta olishni va'da bergan yigitdan qarzdor bo'ladi. U esa kuyovni tanimagani uchun, "Nima uchun men guldasta sotib olishim kerak", deb o'ylaydi. Natijada, konflikt yuzaga keladi. Kelinga guldastani muxayyo qilish vazifasi kelib chiqadi.

Pul qarz so'rash: Eng keng tarqalgan konfliktogenlardan hisoblanadi. Pul qarz so'rash pul so'rayotgan odamda noxush xis-tuyg'ularni uyg'otadi. Ammo unga qarz berilganda ham, konflikt kelib chiqishi mumkin. Chunki bu qarz o'z vaqtida qaytariladi-mi, yo'q-mi, ma'lum emas. Qarz bilan sinash ko'p hollarda qarindoshlar, do'stlar, birodarlar orasini buzib yuboradi.

Agressiyaga moyillik

Ko'pchilik agressiyaga moyillikni faqat erkaklarga xos xususiyat deb biladi. Aslida unday emas. Agressiyaga moyillik ham erkaklarga, ham ayollarga xos xususiyatdir. Ammo erkak va ayol agressiyasi hamda uning qanday ifodalanishi orasida juda katta farq mavjud. Erkaklar agressiyasi o'zini ochiq ifoda qiladi. Erkaklar agressiyasi o'zi uchun ko'proq jismoniy kuch ishlatish shaklini tanlab oladi. Ayollar agressiyasi esa ochiq ifodalanmaydi. Ular orqavorotdan, asta, bilintirmay, zimdan harakat qiladi. Ularni "Sen shu ishni qilding" deb ushlab olish juda qiyin kechadi, chunki ayollar ko'proq psixologik agressiyani tanlashadi va ishlatishadi. O'z opponentini psixologik ezish, uni tahqirlash, unga bepisand munosabatda bo'lish ayollar agressiyasining shakllari hisoblanadi. Erkaklar agressiyasi darrov o'zini ayon etadi. Urish, jismoniy tazyiq, turtish, bir tushurish, bo'g'ish, jismoniy harakatlarni cheklash, do'q qilish, shantaj – bular erkaklar ko'proq qo'llaydigan agressiya turlari hisoblanadi. Ayollar agressiyasi keskin ish tutmaydi, asta, zimdan ish tutadi. Ko'pchilik hollarda ayollar agressiyasi oiladagi a'zolarga nisbatan qo'llaniladi. Birovni kamsitish, ruhiy ezish, o'z kayfiyatini birovni ezish oqibatida normallashtirish, "kulib turib, jonini olish" ayollar agressiyasi hisoblanadi. Ayollar urmasdan turib, boshqa insonni juda katta ruhiy tanglik holatiga olib kirib qo'yishi mumkin. Bir qaraganda erkaklar agressiyasi ochiq namoyon bo'lganligi uchun bezarardek ko'rinadi. **Aslida har ikki tur agressiya ham juda yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.** Erkaklar aggressiv

munosabati oqibatida opponet tomon qattiq jismoniy jarohat olishi mumkinligi ayon. Ayollar agressiyasining keng tarqalgan oqibatlaridan biri, bu – depressiyadir. Depressiyaning oqibatlari ham insonga juda katta tashvishlar olib keladi. Depressiya holatiga chuqur kirib ketgan odam ko'p hollarda o'z joniga suiqasd qilishi mumkin. Agressivlikka moyillikning oldini olish ta'lim va tarbiya, insoniy qadriyatlar, diniy e'tiqod tizimida yotadi. Inson o'zida agressiyaga moyillikni sezsa, unga qarshi o'zini to'g'ri shakllantira borishi lozim. Agressiya, u yo'naltirilgan odamning ham, uni ishlatayotgan, agressiyani qo'llayotgan odamning ham salomatligiga juda katta putur yetkazadi.

Egoizm

Egoizm faqat o'z manfaatlarini ko'rish qobiliyati bo'lib, o'zbek tilida xudbinlik so'ziga to'g'ri keladi. Xudbinlik forscha so'z bo'lib, ikki ildizdan tashkil topgan: “xud” – o'z, o'zim ma'nolarini bildiradi, “bin” – ko'rish ma'nosini bildiradi. Demak, xudbin so'zninig ma'nosi – faqat o'zini ko'rishga to'g'ri keladi. Doimiy agressiyaning ildizlaridan biri egoizmga borib taqaladi. Egoizm – o'z manfaatlarini, boshqalar manfaatlarining buzilishiga qaramay, eng oliy qadriyat sifatida anglanish jarayoniga aytiladi. Shu bois, fransuz lingvisti P.Buast “*xudbinlik ustidan qozonilgan g'alaba eng sharafli g'alabadir*”, deb aytgan. Fransuz yozuvchisi S.Segyur esa, “*xudbin uchun – o'tmish – bo'shliq, hozir – qaqroq cho'l, kelajak esa – ahamiyatsizdir*”, deb ta'kidlagan.

Insonning o'z o'ziga munosabati tabiatan o'zini o'zi ma'qullash, o'zini sevisht, o'ziga aro berish, o'zini chiroyli tutish, o'zini “yaxshi” inson sifatida ko'rsatish asosida shakllantiriladi. Bolalikda kichkintoylarni o'z yuz-ko'zini orasta tutishini o'rgatayotganda biz odatda ularga “hozir qo'llarimiz va yuzimizni yuvib, oppoqqina bo'lib olamiz”, deymiz. Mana shu “oppoqqina” bo'lish tartib va qoidalari har bir insonga bolalikdanoq singdiriladi. Shu bois, insonning ichki o'zini anglashida “men” degan tushuncha tarbiyalanishi lozim va zarur. Inson “men”i uni ijtimoiy hodisa sifatida shakllanilishi uchun asos yaratadi. Yutuqlarga erishish, o'zini ko'rsatish, hurmatga sazovor bo'lish mana shu ichki “men”ning sayi-harakatlari asosida amalga oshiriladi.

Demak, ichki “men”ni nimalarga yo’naltirilsa, oxir oqibat shu qadriyatlarga mutanosib xarakter va amallar shakllantiriladi. Ammo ana shu ichki “men” boshqa yuzlab “menlar”ga qarshi, ularni inkor etgan holda emas, balki ular bilan birgalikda yashashga ko’nikkan holda tarbiyalanishi lozim. Shu nuqtai nazardan inson ichki “meni” bilan bog’liq ravishda sog’lom “egoizm” va nosog’lom “egoizm” ajratiladi. Sog’lom egoizm insonning shaxs sifatida shakllanishi uchun energiya beruvchi kuchi hisoblanadi. Nosog’lom egoizm esa insonlarni o’zga inson bilan to’qnashuvi, ziddiyatlar, o’zini ustun qo’yish, kelisha olmaslik, o’zgalarni inkor qilish uchun xizmat qiladi.

Xulosa

Kurs ishini bajarish jarayonida mavzuga oid pedagogik-psixologik, ilmiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil etish hamda kuzatishlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, 80% konfliktlar ularning ishtirokchilari hoxish va irodasiga qarama-qarshi o'laroq, ular istagiga qarshi ravishda vujudga keladi. Ya'ni, kamdan kam hollarda konflikt ataylab tayyorlanib, amalga oshiriladi.

Bizning psixikamiz va psixologiyamiz o'zimizga qaratilgan agressiyaga qarshi agressiya bilan javob qaytarishga, ziddiyatda eng avvalo o'zini himoya qilishga, kezi kelganda, o'zini muhofazalash uchun, xujum qilishga tabiatan kodirovka qilingan bo'ladi, mana shunday o'zini tutishga biz tabiatan ma'lum darajada o'rgatilgan, tayinlanganmiz.

Maktab o'quvchilarining tipologik xususiyatlariga binoan bir nechta shartli guruxlarga ajratish mumkin:

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning birinchi guruhi orsizlar yoki subutsiz, surbetlar deb ataladi. Ular o'z xatolarini bila turib qonun va qoidalarni buzadilar, noma'qul ishlarni qiladilar. Bunday bolalar betgachopar, ujar tabiatli, raxm-shafqatsiz, «zo'ravon» bo'ladilar.

Ikkinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar yaxshi va yomonni tushunadilar, biroq mustaqil e'tiqodga, barkaror yuksak ris-tuyg'uga ega emasliklari sababli «orqa kanot» da turib ziddiyatli, nizoli vaziyatlarni keltirib chiqaradilar. Bu turdagilar ko'pincha qilmishlariga tavba qiladilar, so'z beradilar, lekin ma'lum fursat o'tgandan sung bergan va'dalarini butunlay unutadilar.

Uchinchi guruxga mansub o'quvchilar shaxsiyatparastlik tufayli tartibbuzarlik yo'liga kirib qoladilar.

Turtinchi guruhga injiq tabiatli o'quvchilar kiradi. Ular sinf jamoasida o'z o'rnilarini topa olmaganidan qayg'uradilar. Bunday o'quvchilar ginaxon, arazchi bo'ladilar, shuning uchun sinf jamoasida kamsitilayotgandek kechinmalar bilan yashaydilar.

O'quvchilarning xatti-xarakatlarini ijobiy yo'nalishga burib yuborish uchun

ularda ma'suliyat, g'urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak xislarni tarkib toptirish lozim. Ularga mos topshiriklar berish, ma'suliyat xissini shaqllantirish orkali ijobiy fazilatlar paydo kilish mumkin.

Shunday qilib, konflikt inson hayotining tabiiy ajralmas qismi bo'lib, konfliktlar mazmunini bilish insonni konflikt vaziyatlarda o'zini tutish tartib-qoidalariga o'rgatadi. Konflikt mazmunining murakkab kelib chiqish vaziyatlarini anglash esa insonni ana shunday bilimlar bilan qurollantiradi. Shu bois, konfliktning oldini olish uchun quyidagi amallarga rioya etish ahamiyat kasb eta boshlaydi:

- Konfliktga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlar, amallar, yoki harakatsizlikdan iborat bo'lgan konfliktogen vaziyat va holatlardan o'zini va atrofida qilarni asrash, konfliktogenlarga e'tiborli bo'lish;

- Konfliktogenlar ko'payib, ularning majmuaga aylanishi oldini ola bilish, konfliktogenlar eskalasiyasiga yo'l qo'ymaslik;

- Konfliktogenlarga konfliktogen bilan javob qaytarmaslik;

- Konfliktogenlar bilan to'qnashganda o'zini himoya qilishga emas, balki nima uchun opponentda konfliktogen vaziyat va holat vujudga kelganiga diqqatni qaratish;

- O'zida vujudga kelayotgan konfliktogenlardan qutilish va ularni faol ishlatmaslik choralarini ko'rish;

- Jiddiy konfliktogenlardan bo'lgan o'zini ustun qo'yish, agressiya moyillik, egoizmdan qutilish hamda boshqalar tomonidan ular ishlatilganda ham o'zining konflikt vaziyatga tortilmasligi choralarini ko'rish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. O'zbekistonnint o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: «O'zbekiston», 1992.
2. Karimov I. A. Xalqning otashqalb farzandi. T.: «O'zbekiston», 1992.
3. Karimov I. A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. T.: «O'zbekiston», 1992.
4. Karimov I.A.O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura T.: «O'zbekiston», 1993.
5. Karimov.I.A. Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezonini bo'lsin. T.:«O'zbekiston», 1994.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, «O'zbekiston», 1992.
8. Ansupov A. Ya., Shipilov A.I. Konfliktologiya, M.: "Izd-vo" 1999
9. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik saylanma, 1993. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
10. Abu Lays as Samarqandiy. Bo'ston ul orifin. Toshkent, «Cho'lpon», 1992.
11. Abul Qosim Muhammad az-Zamahshariy. Nozik iboralar. Toshkent, "Kamalak", 1992.
12. Abu Nasr Farobiy. Aql to'g'risida. Baxt-saodatga erishuv. "O'zbek pedagogikasi antologiyasi". Toshkent, "O'qituvchi", 1995.
13. Avestodan namunalar. "O'zbek pedagogikasi antologiyasi", T., 1995.
14. Vorobjeykin I.Ye., Kibanov A.Ya., Zaxarov D.K. Konfliktologiya, Uchebnik dlya vuzov. M.: "Izd-vo" 2004 g.
15. Utkin A. Ya. Konflikt: teoriya i praktika. M. "Izd-vo" 1998 g.
16. Gromova O. N. Konfliktologiya. M.: "Izd-vo" 1993 g.
17. Zaysev A. K. Социальный конфликт на предпрятии. — Kaluga: KISI. 1993,
18. Конфликт в коллективе и пути их преодоления. — L.: VIPK. 1991.
19. Прикладная конфликтология. Xrestomatiya. Sost. K.Selchyonok. M.: M. "Izd-vo" 2003
20. Xasan B.I. Konstruktivnaya psixologiya konflikta. SPb., M. "Izd-vo" 2003.

Internet ma'lumotlari quyidagi saytlardan olinadi:

www.referat.arxiv.uz

www.bilimdon.uz,

www.ziynet.uz,

www.tatu.uz